

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SONLAR RAMZIY MA'NOLARINING QIYOSIY TAHLILI

Izzatbek Olimbayevich REJAPOV

O'qituvchi

Ikkinchi chet tili kafedrası

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЧИСЛОВОЙ СИМВОЛИКИ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Иzzatbek Олимбаевич РЕЖАПОВ

Преподаватель

Кафедра второго иностранного языка

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

## COMPARATIVE ANALYSIS OF SYMBOLICAL MEANINGS OF NUMBERS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Izzatbek Olimbayevich REJAPOV

Teacher

The Second Foreign Language Department

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan [izzatbekrio.88888@mail.ru](mailto:izzatbekrio.88888@mail.ru)

UDC (UO'K, УДК): 372.881.1

### For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Rejapov I.O. Ingliz va o'zbek tillarida sonlar ramziy ma'nolarining qiyosiy tahlili //O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 5 (52). — B. 143-152,

<https://doi.org/10.36078/1697006775>

**Received:** August 02, 2023

**Accepted:** October 03, 2023

**Published:** October 05, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi sonlar va son komponentli frazeologik birliklarning ramziy ahamiyati tahlil qilindi. Ma'lumki, olamning lisoniy manzarasini ifodalanishida sonlarning sakral va ramziy ma'nolari alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillaridagi misollar yordamida ramz tushunchasi, sonlarning umumiy ma'nosi hamda ramziy ahamiyatini o'rganishga e'tibor qaratildi. Sonlarning ramziy ma'nolari jahon madaniyatidagi umumiy mazmun-mohiyati, ramziy ma'nolarning ingliz va o'zbek tillari frazeologik birliklarida aks etishini taqozo etadi. Ushbu maqolada, shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning semantikasi murakkab ramziy ma'nolarga ega ekanligi sonlarning muhim madaniy birliklar sifatida talqin etish imkoniyati ham tadqiq etildi. Jahon madaniyatida sonlar ramziyligining universalligi antroposentrik dunyoqarash va inson taraqqiyotining universal tizimi, shuningdek, insonning dunyo, jamiyat va o'zining tuzilishini sonlarning muqaddas kuchi orqali tushuntirishga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** lisoniy olam manzarasi; sonlar; son komponentli frazeologik birliklar; ramz; ramziylik; ramziy ma'no.

**Аннотация.** Статья посвящена исследованию символической значимости числительных как компонентов фразеологических единиц на материале английского и узбекского языков. Известно, что сакральные и символические значения чисел

играют особую роль в репрезентации языковой картины мира. В процессе исследования особое внимание уделяется изучению понятия символа и его основных характеристик, общего значения и символического значения числительных. Как показало наше исследование, символические значения числительных репрезентируются во фразеологических единицах английского и узбекского языков и характеризуются общностью символики, что обусловлено универсальностью символических значений числительных в мировой культуре. В статье проводится попытка исследования числительных в качестве лингвокультурем и определения взаимообусловленных и переплетенных между собой символических значений числительных в составе фразеологических единиц английского и узбекского языков. Универсальность символики числительных в мировой культуре обусловлено общностью антропоцентрического мировоззрения и системы развития счёта, а также восприятия и интерпретации мира, общества и человека посредством сакрализации числительных.

**Ключевые слова:** языковая картина мира; числительные; фразеологизмы с числовыми компонентами; символ; символическое значение.

**Abstract.** This article analyzes the symbolic significance of numbers and phraseological units with number components in the English and Uzbek languages. It is known that the sacred and symbolic meanings of numbers are of particular importance in the expression of the linguistic world picture. During the research, attention was paid to studying the notion of symbols and their characteristics, the general meaning and symbolic significance of numbers. As the results of the research have shown, symbolic meanings of the numbers are represented in phraseological units of both English and Uzbek languages, being conditioned by universal symbolics of numbers. The article attempts to study the numbers as culturally marked language units (linguoculturemes) and determine a complex of interwoven symbolic meanings based on deep semantics of phraseological units with number components. The similarities of symbolic meanings of numbers are conditioned by commonalities of anthropocentric worldview and number system as well as by universals of perception and interpretation of the world, society and humankind with the help of number sacralization.

**Keywords:** linguistic world picture; numbers; phraseological units with numerical components; symbol; symbolism; symbolic meaning.

**Kirish.** Ramz tushunchasi ustida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, san’atshunoslik va hokazo soha mutaxassisleri tadqiqotlar olib borganlar. Tadqiqotlar jarayonida har bir olim o‘z sohasidan kelib chiqqan holda ramz tushunchasini o‘z yo‘nalishiga mos ravishda ilmiy jihatdan o‘rganadi. Bu ushbu tushunchaning serqirraligi va hozirgi vaqtgacha mavhum va o‘zaro ziddiyatli tushunchalardan biri ekanligi bilan bog‘liqdir.

“Ramz” atamasining tarixiy rivojlanishi antik davrdan boshlanib ushbu davrning mashhur namoyondalari Platon, Aristotel, Pifagor, Demokrit va boshqalarning asarlarida uchraydi. Biroq, A. A. Taxo-Godi va N. Djusupov ta’kidlaganidek, “ramz”

tushunchasining antik matnlarda qo'llanilishi o'ziga xoslikka ega. Ularning fikriga ko'ra, antik davrda ramz muayyan obyekt yoki voqeylikni ifodalab, biror narsaning ramzini ifodalagan holatda avtonom qo'llangan. U hech narsaga ishora qilmagan, va ishora qilsa ham, ko'zdan yashirin bo'lmagan narsani nazarda tutgan. Bu holatda ramz belgi va timsol (emblema) sifatida tushunilgan (12, 29). Ramziylik antik davr faylasuflari asarlarida yaxlit hodisa sifatida ongsiz ravishda, lekin miqlarni yaratish jarayonlari bilan juda keng ta'sirda ifodalangan" (5, 11).

A. F. Losev ramz "o'zidan farq qiluvchi ma'lum obyektlarning ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan g'oyaviy, majoziy yoki ko'chma ma'noga ega tuzilma" (5, 10-11; 6, 49; 7, 286), deb ta'riflagan. Oddiy tilda bu so'z va belgilarning barchasi ramz, bo'lishi mumkin degan fikrni olga so'rgan. Yu. M. Lotman ramzning madaniyat bilan bogliqligini va uning belgilik, arxaiklik va qadriyaviy kabi xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlaydi (9, 58). N. D. Arutyunovaga ko'ra, "ramz tushunchasi pragmatik nutq birligi bo'lib kommunikativ maqsadga ega, ya'ni ramz boshqaruvchi bo'lganda u illokutiv (xayoliy) kuchga ega bo'ladi" (1, 59). E. Sepir asarlarida ramz insonning kognitiv faoliyatini aks etuvchi asosiy lisoniy birlik sifatida talqin etiladi. Ushbu talqinlardan kelib chiqib aytish mumkinki, har qanday ramz bir vaqtning o'zida ham kontseptual ham madaniy ham kommunikativ birlik sifatida namoyon bo'lishi mumkin (11, 31).

**Asosiy qism. Tahlil va metodologiya.** Olamning lisoniy manzarasida sonlarning ramziy ahamiyati alohida o'rin tutadi. Sonlar universal ramzlardir, chunki ular barcha madaniyatlarda ramz sifatida namoyon bo'ladi va ularning ramziy ma'nolari turli madaniyatlar vakillari tomonidan deyarli bir xil talqin etiladi. Bunday sonlar ko'pincha sakral, ya'ni "muqaddas", sonlar sifatida e'tirof etiladi va har bir lingvomadaniyat uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Qadim zamonlarda ham sonlarning o'zida ramziy ma'no kasb etishi e'tibor markazida bo'lgan. Antik yunon ilm fanida o'ziga xos o'rin tutgan Pifagor va uning ta'limotida sonlarning ramziy alohida ma'noga ega ekanligi, dunyodagi hamma narsa olamning garmoniyasini, ushbu garmoniyani tashkil etuvchi fenomenlarning munosabatlari sonlar tizimida aks etishini ta'kidlangan. Qadimgi Bobil, Qadimgi Yunoniston, keyinchalik Hindistonning buyuk matematik va faylasuflari sonlar dunyoning yaralishi, vaqt hamda makon tushunchalariga asoslangan prinsiplarni namoyish qilishi mumkin deb tahmin qilishgan. Sonlar musiqa, she'riyat, me'morchilik va san'atda asos sifatida foydalanilgan. Sonlar va ularning munosabatlarining muqaddas xususiyatlari haqidagi tasavvurlar insoniyat paydo bo'lganida kelib chiqqan, chunki ibtidoiy qabilalar ham ulardan foydalangan. O'sha davrdan beri ma'lum bir yoki boshqa alohida ma'no bilan ajralib turuvchi, ma'nodor, timsoliy raqamlar sivilizatsiya tarixi, arxaik, antik, o'rta asr va hatto yangi ma'naviy madaniyatning muhim elementi hisoblanadi. Ongli yoki ongsiz ravishda biz son simvolikasiga bo'ysunamiz: guldastada gullarning toq bo'lishi, olti yoki o'n ikki kishilik servis, choyni uch marotaba qaytarish. Har bir raqam ortida ma'lum bir xususiyatlar, tushuncha va

obrazlar biriktirilgan. Sonlar insonning harakteri, iqtidori, kuchli va ojiz tomonlarini aniqlash, kelajakni bashorat qilish, hayotda eng yaxshi o‘rinni egallash, qaror qabul qilish va harakatlanish uchun eng mos vaqtni tanlashda foydalaniladi. Sonlar yordamida insonlar hamma vaqt nafaqat atrof olam, mikro va makrokoinot haqida fikr yuritishgan, uning tuzilishi va borliq qonuniyatlarini tafakkur qilishgan, balki o‘zlarining undagi tutgan o‘rinlari, rollari va xatti-harakatlarini aniqlashgan. “O‘tgan davr mobaynida sonlar muhim tushuncha sifatida insoniyat bilim, tajribasining turli sohalari obyektiga aylandi va bu qarashlar A. Losev, A. Avgustin, Platon kabi faylasuflarning tadqiqotlarida o‘z isbotini topgan. So‘ngi yillarda sonlar va ularning ramziy ahamiyatiga bo‘lgan qiziqish faylasuflardan tashqari lingvomadaniyatshunoslarning ham orasida sezilarli darajada oshdi” (10, 39). Shuningdek, sonlarning o‘zida g‘ayrioddiy sehrni yashirishi haqidagi qarashlar, ularning turli xalqlar hayoti, adabiyoti, og‘zaki ijod namunalari va madaniyatida tutgan o‘rni hamda muommolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi.

O‘zida ramziylikni ifodalovchi ba‘zi sonlarning maxsus guruhini qiyosiy o‘rganish ularning shakllanish tarixini va ma‘lum bir lingvomadaniyat vakillari dunyoqarashining rivojlanishi, voqelikni idrok etish xususiyatlarini, madaniy qadriyatlarini o‘rganish imkonini beradi.

Sonlar o‘zlari bildiruvchi ramziy ma‘nolari bilan frazeologik birliklar ma‘nosiga ham katta ta‘sir o‘tkazgan. Masalan, sanoq sonlar tizimini boshlab beruvchi **bir** soni turli xalqlar madaniyatida ilohiylikni, hamma narsaning boshlanishi, birlik, universallik, yagonalikni anglatadi. Uning xarakterli xususiyatlari — kuch, quvvat, iroda, faollik, tashabbus, yangilikka moyillik, yetakchilikka intilish, shon-shuhrat va hokimiyatga intilish, individualizm, egosentrizm. Ingliz va o‘zbeklarning urf odatlari va madaniyatiga juda keng ta‘sir qilib ko‘plab frazeologik birliklarni tashkil topishida muhim komponent sifatida ishtirok etadi va quyidagi misollarda bir sonining **birlik, yakdillik** ma‘nosini o‘zida aks ettiruvchi misollarni ko‘rib chiqamiz:

*be one flash (eng)*- bir tan bir jon bo‘lmoq (uz);

*as one man (eng); one and all (eng)* - birdamlik bilan, yakdil (uz);

*bir yoqadan bosh chiqarmoq*

*bir ovozdan*

*To‘rtovlon bitta bo‘lsa to‘lmaganni to‘ldirar, oltovlon ola bo‘lsa og‘zidagin oldirar* (14, 341).

Yuqoridagi ma‘nosiga qarama-qarshi tarzda bir soni yakkalik, yolg‘izlik, kuchsizligini anglatish uchun ishlatilishi mumkin:

*yolg‘iz otning dong‘i chiqmas;*

*one swallow does not make a summer (eng)*-bir qaldirg‘och bilan yoz kelmaydi.

Ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham “bir” noaniqlikni ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin va “bir” sonining bu ma‘nosi ko‘pincha ertaklarda qo‘llaniladi:

*once upon a time(eng) -bir bor ekanda, bir yo‘q ekan(uz)* (13, 402).

**Ikki** sonining ramziy ma‘nolariga juftlik, ikkilik, qarama-qarshilik kiradi. Ikki sonini ziddiyatlar soni deb ham atashadi. Bu insonning dunyoni kategoriyalashda binarlik tamoyilidan keng foydalanishi bilan bog‘liq, ya‘ni inson zamon, makon, tabiat, astral xodisalar, madaniy qadriyatlar, his-tuyg‘ularni qarama-qarshiliklar sifatida idrok etadi (4, 35; 3, 56). Butun dunyo ikkita qarama-qarshi qutbga bo‘lingan deb ishonilgan, yorug‘lik va zulmat, osmon va yer, tirik va jonsiz, erkak va ayol. Ikki soni hodisalarni, bir-biriga qarama-qarshi tasvirlashda ishlatilishiga misol sifatida islomiy ta‘limotda mavjud bo‘lgan ikki farishta haqidagi rivoyatni keltirish mumkin: kishi olamdan o‘tgandan so‘ng uning yoniga Munkar va Nakir degan farishtalar kelib, savol-javob qilishadi. Islom g‘oyalariga ko‘ra, Munkar odamning o‘ng yelkasiga o‘tirib, yaxshiliklarini yozadi, Nakir chap yelkasiga o‘tirib, gunohlarni yozadi. Qaysi holatlar ko‘proq qayd etilishiga qarab, Alloh taolo insonni jannatga yoki do‘zaxga yuboradi. Ikki dunyoning mavjudligini, ya‘ni dunyo va oxiratni bildirish uchun ham ikki sonidan foydalaniladi: *ikkala dunyoda ham-ikki dunyoda ham; ikki dunyo rohatini ko‘r; ikki dunyoda aziz bo‘l.*

Ikki sonining qarama-qarshilikni ifodalovchi ramziy ma‘nolarini quyidagi misollar yordamida ham ko‘rishimiz mumkin:

*two of a trade never (or seldom) agree (eng) — ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas (uz);*

*when two Sundays come in one week(eng) — hech qachon, qizil qor yoqqanda;*

*if you run after two hares, you will catch neither(eng) — ikki kemani boshini ushlagan g‘arq bo‘ladi (uz);*

*two-faced (eng) - ikki yuzlamachi (uz)*

Ingliz va o‘zbek tillarida ikki soni, shuningdek, juftlik ma‘nosini bildirish uchun ham qo‘llaniladi:

*double harness (eng) — turmush qurmoq, nikohlanmoq* (o‘zb.tarjima). Bu yerda “harness” otlarga taqiladigan egar-jabduq bo‘lib, ikkita ot aravaga qo‘shilganda “double harness”, ya‘ni juft egar jabduq-bilan qo‘shilgan bo‘lib bu so‘z keyinchalik inglizlarda ikkita insonning turmush qurishi, nikohdan o‘tishi ma‘nosini anglatuvchi frazeologik birlikka aylangan. Bu frazeologik birlikning o‘zbek tilidagi ekvivalenti *er-xotin qo‘sh ho‘kiz (uz); bir boshini ikkita qilmoq-* iboralaridir. Quyidagi ikki soni va uning sinonimlari ishlatilgan misollarda ham ushbu sonning juftlikni anglatuvchi ma‘nosi ifodalangan: *play double (eng) , see double (eng) a double-edged (or two-edged) sword (eng); a twice-told tale (eng); it takes two to make a quarrel (eng) -qars ikki qo‘ldan chiqadi(uz)* (13, 230).

**Uch** soni — boshlanish, davom etish va nihoya yoki yakunga ega bo‘lgan ma‘lum bir ketma-ketlikning to‘liqligi va ma‘lum bir kichik davr yoki jarayonning tugash ma‘nosini anglatish uchun ya‘ni tugallanganlik kabi ramziy ma‘nolarga ega. Inson hayotining hal qiluvchi vaziyatlarida, shuningdek, har qanday harakatni muvaffaqiyatli bajarish uchun uch marta takrorlashga misollar mavjud

(2,12). Masalan, o‘zbeklarda turmushga chiqayotgan qizdan rozilik so‘ralganda uch marta so‘ralishi, inglizlarda cherkovga chaqirilayotgan kelin-kuyovlarning ismlari uch marta yangrashiga bunga misol bo‘ladi. O‘zbek tilidagi “*uchdan keyin puch*” iborasidan ham uch sonining tugallanganlikni anglatuvchi ma’nosini ko‘rishimiz mumkin; *three cheers (for) (eng)* — kimningdir sharafiga uch marta salomatlik tilash yoki xursandchilikni bildirganda ishlatiladi. Uch sonining muqaddasligi yoki butunlikni ifodalishiga sabab uning ramziy ma’nosiga borib taqaladi. Ya’ni ikki soni keltirib chiqaradigan qarama-qarshilik va binar ma’nolar ziddiyatining yechimi sifatida kelishidir. Uch sonining **tugallanganlik, yetarlilik** ma’nosini quyidagi misollarda ham ko‘rishimiz mumkin:

*when three know it, all know it (eng)-uch kishi bilgan narsa sir emas (uz);*

*the best fish hid when they are three days old (eng)-mehmonning izzati uch kun(uz) (13, 632).*

Xristianlik dinida uch soni muqaddas ahamiyatga ega bo‘lib ko‘plab asosiy marosim, muhim mifologik ramzlarni belgilashda faol qatnashadi. Buni xristianlarning muqaddas kitobi bo‘lgan Injilda ko‘plab uchratish mumkin: Ibrohim alayhissalomning oldiga o‘g‘lining yaqinda tug‘ilishi haqidagi xabar bilan uchta farishta keladi. Bu “Eski Ahd Uchligi“ deb ataladi. Yana bir misolda uchta donishmand chaqaloq Isoga uchta sovg‘a olib kelishadi va hokazo. Xristianlarda bo‘lgani kabi islom dinida ham uch sonining muqaddasligini musulmonlarning dafn va xotirlash marosimlarida ishlatiluvchi iborlarda ko‘rishimiz mumkin. Biror kishi vafot etganidan keyin uchinchi kuni o‘zbeklar xotirlash marosimini o‘tkazishadi: *uchini o‘tkazish; uchni o‘qitish* (Qur‘on tilovat qilinadi) va dafn va xotirlash marosimidagi uchinchi kun ma’nosini belgilab, vaqtning muqaddas chegarasini ko‘rsatadi.

Ko‘plab xalqlarda **yetti** soni hisobni tugatganligi va shu boisdan ham bu songa nisbatan deyarli barcha madaniyatlarda o‘ziga xos bo‘lgan alohida ajralib turuvchi ramziylik va muqaddaslik bor. Yetti sonining asosiy ramziylikni bildiruvchi ma’nolaridan biri bu baxtliklik yoki omadni bildiruvchi ma’nosidir. *on cloud seven — yettinchi osmonda* — baxtliklik, xursandchilikni bildiradi va Islom dinida jannatning, arsh a’loning yetti qavatdan iborat ekanligi, Allohga eng yaqin qavat yettinchi qavatligi va Meroj kechasida Muhammad (SAV) arsh a’loga ko‘tarilgani hamda bu yuksak maqom ekanligi, ya’ni baxtning yuksak darajasi ekanligini bildirgan. Boshqa tillarga ushbu ibora baxtlikning yuksak darajasini ifodalash ma’nosi bilan kirib kelgan.

Yetti raqamining ramziylik ma’nosi deyarli barcha xalqlar madaniyati va mifologiyasida universaldir. Diniy jihatdan, ushbu son Xudo va insonning mistik tabiati o‘rtasida bog‘liqlikni anglatuvchi muqaddas son deya qaraladi. Xristianlik dinida ham ushbu songa alohida urg‘u beriladi: Injilda ushbu ibora mavjud: *Seven deadly sins (eng)*-o‘linga boshlovchi yetti gunoh: mag‘rurlik, g‘azab, hasad, shahvat, ochko‘zlik, boylikka o‘chlik va dangasalik.

Qadimgi dunyo tarixida yetti soni keng qoʻllanilgan: the City of Seven Hills(eng) — yetti tepaliklar shahri; Seven hills of Rome(eng) — Rimning yetti tepaligi: Palatin, Kapitolin, Aventin, Kaylin, Esquilin, Viminal va Kollin. Ingliz tilidagi frazeologik birlik *cousin seven times removed (eng)* -oʻzbek tilidagi “yettinchi avlod-begona”ga mos keladi, uzoq qarindosh maʼnosini bildiradi. Ushbu oʻrinda yetti sonining toʻliq bir davr yoki tugallanganlik maʼnosini koʻrishimiz mumkin. Ingliz tilida yetti soni quyidagi frazeologik birliklar tarkibida qoʻllanilishini koʻrishimiz mumkin: *a fool may ask more questions in an hour than a wise man can answer in seven years* — ahmoq bir soat ichida dono odam yetti yilda javob bera oladigandan koʻra koʻproq savol berishi mumkin; *one lie needs seven lies to wait upon it* — bir yolgʻonni yashirish uchun yettita yolgʻon kerak.

Oʻzbek tilida ham yetti soni muqaddas maʼnoga ega. Koʻplab sohalarda tez-tez foydalanish imkoniyatiga koʻra yetti soni alohida ahamiyat kasb etadi. Yetti soni dunyoning fazoviy tuzilishi haqidagi kosmologik gʻoyalarni ifodalaydi. Bundan tashqari, islom diniga koʻra jannat yetti qavatdan iborat boʻlib, yettinchi qavatga kirganlar eng oliy saodatga erishadilar va farishtalar, oliy kuchlar yashaydigan samoviy mifologik makon oʻzbekcha *yettinchi osmon* iborasi bilan ifodalanadi. Turkiy xalqlar qarashlarida boʻlgani kabi oʻzbeklarning qarashlarida ham yer yetti qavatdan iborat. Oʻzbekcha ibora: *yetti qat yer osti* — yetti qavat yer ostida yovuz kuchlar, quyi mavjudotlar yashaydigan mifologik makonga ishora qiladi. *Yetti dengiz oraligʻida; yetti togʻ ortida* — begona dunyo boshlanadigan chegaralarni bildiradi. Ertaklardagi bu makonga erishish turli qiyinchilik va sinovlar bilan kechadi. Yetti sonining ramziy ahamiyatini oʻzbeklarning dunyoqarashida nasl-nasabni farqlash bilan bogʻliq boʻlgan quyidagi anʼana bilan ham izohlashimiz mumkin: oʻzbeklar yetti avlod tizimi anʼanalariga amal qiladilar. Bu tizimga koʻra, yettinchi avlodgacha qarindoshlar yaqin yettinchi avloddan keyin qarindoshlik uzoq hisoblanadi. Oʻzbeklarning bu ijtimoiy va madaniy xususiyatlari quyidagi frazeologik birliklar misolida oʻz aksini topadi: *yetti ajdodni bilish* anʼanaga koʻra, oʻzini hurmat qiladigan oʻzbek oʻz yettiligini ajdodlar nomi bilan bilishi kerak; *yetti avlodiga yetadi* toʻplagan boylikka nisbatan butun oilasiga yetishi nazarda tutilyapti. Shuningdek, kimdir vafot etsa oʻlimidan yetti kundan keyin marosim oʻtkazish va *yettisini oʻtkazdik, yettisini oʻqitdik* kabi iboralar bilan taʼriflanadi. Bu yetti sonining biror bir siklning tugashini va tugallanganlik maʼnosini oʻzida qamrashini koʻrsatadi. Quyidagi oʻzbek tilidagi misollar ham yetti sonining toʻkislik, tugallanganlik maʼnolarini ifodalab keladi: *yetti bukilib; yetti yoshdan yetmish yoshgacha; yetti nomusni yerga bukmoq; yetti uxlab tushiga kirmaslik; yetti oʻlchab bir kesmoq* (15,182–184).

Dunyo xalqlari madaniyati va mifologiyasida **oʻn ikki** soni juda keng tarqalgan. Oʻn ikki soni deganda birinchi boʻlib yilning oʻn ikki oyi tasavvurimizga keladi va bu son toʻliqlik va sikllning ramzi hisoblanadi. Koinotni aylantiradigan “falsafiy tosh”, toʻliqlik va ilohiy doiraning timsoli deb hisoblangan oʻn ikki soni koʻplab tadqiqotchilar tomonidan kundalik, diniy va maʼnaviy anʼanalarda mavjudligi

ta'kidlanadi. Diniy tomondan bu son xristianlarda Iso alayxissalomning o'n ikki havoriysi bilan bog'lanadi va muqaddas son hisoblanadi. *O'n ikki* yildagi burjlar va oylar soni (olti erkak va olti ayol); Kun va tunning o'n ikki soatdan iboratligi; Kosmik daraxtdagi o'n ikki mevalar; Dalay Lama kengashining o'n ikki a'zosi; Xristianlikda Eski Ahddagi Yoqubning o'n ikki o'g'li va Yangi Ahdda Iso Masihning o'n ikki shogirdi. Yilda o'n ikki oy mavjudligi va jahon adabiyotlaridagi juda ko'p boshqa misollar. Bu, ehtimol, yil davomida muntazam ravishda o'n ikki oyga mos o'n ikki burjning aylanishi yoki taxminan har yigirma besh yilda bir sodir bo'ladigan katta sikl orqali tushuntiriladi. Ingliz tilida, har bir frazeologik birlik tarkibida o'n ikki soni turli xil ma'nolarda ifodalanadi, bu esa bir xil ma'noga ega bo'lgan sakral frazeologik birliklar guruhini shakllanishini murakkablashtiradi. Quyidagi misollar o'n ikki sonining yevropa xalqlari xususan ingliz mifologiyasida juda keng tarqalganiga misol bo'ladi:

*twelve-headed snakes* — o'n ikki boshli ilonlar,

*twelve brother's robber's* — o'n ikki aka-uka qaroqchilar.

O'n ikki sonining ramziyligi, birinchi navbatda, astronomiyaning asosiy tushunchalari va g'arbiy va sharqiy xalqlarda mavjud bo'lgan astrologiyaga oid bilimlar bilan bog'liq. Bundan tashqari, nasroniylikda bu raqam "tanlangan raqam" ma'nosiga ega va miqdorning Iso Masihning havoriylari, Iyakov o'g'illari, qadimiy Isroilning 12 qabilalari mavjudligi, Yunon Panteonidagi o'n ikkita Olimpiya xudolari va boshqalar (Kolson, 2005) bilan tasdiqlanadi. Xet va Anadolu an'alariga ko'ra, qurbonlik qilinadigan hayvon tanasi o'n ikkita asosiy qismlardan iborat deb ishoniladi va diniy marosim paytida u o'n ikki qismga bo'linadi (O'zbek tilida: molning 12 muchasi — hayvonning 12 qismi).

**Xulosa** sifatida, ko'plab xalqlarning dunyoqarashida sonlar sakral ma'nolarga ega va ularning kelib chiqishi insoniyat tarixining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi. Sonlar maxsus madaniy kodning elementlarini tashkil qiladi, ularning yordamida koinot va insoniyat tavsif tizimini namoyon bo'ladi. Jahon madaniyatida sonlar ramziyligining universalligi antropotsentrik dunyoqarash va inson taraqqiyotining universal tizimi, shuningdek, insonning dunyo, jamiyat va o'zining tuzilishini sonlarnig muqaddas kuchi orqali tushuntirishga intilishi bilan belgilanadi. Ingliz va o'zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklarning mavjudligi, ularning semantikasi murakkab ramziy ma'nolarga ega ekanligi sonlarning muhim madaniy birliklar sifatida talqin etish imkoniyatini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. — Москва, 1999. — 905 с.
2. Гизатуллина Л. Р. Нумерологические фразеологические единицы в английском и татарском языках. Автореф.дисс. ... к.ф.н. — Уфа, 2004. — 32 с.



3. Галиева М.Р. Когнитивный принцип бинарности в религиозной картине мира // Когнитивная лингвистика. Научно-теоретический журнал. — 2014. — № 2 — С. 56-65.
4. Галиева М.Р. Символическая значимость мифолого-религиозно маркированных языковых единиц // Ўзбекистонда хорижий тиллар // Илмий методик электрон журнал. — 2018. — №4 (23). — С. 33–40. Режим доступа: <https://journal.fledu.uz>
5. Джусупов Н.М Тюркский символ в художественном тексте, Монография, — Астана. 2011. — 177 с.
6. Лосев А. Ф. Символ // Философская энциклопедия. Т. 5. — М., 1970. — С. 10–11. — URL: <http://philosophy.niv.ru/doc/encyclopedia/philosophy/articles/1117/simvol.htm>
7. Лосев А. Ф. Проблема символа и реалистическое искусство. — М., 1976. — 51 с.
8. Лосев А. Ф. Греческая мифология // Мифы народов мира. Энциклопедия. Т. 1. — М., 2003. — С. 321–335.
9. Лотман Ю.М. Семантика числа и тип культуры // Типология культуры. Изд-во Тарт. гос. ун-та. — Тарту: Вып.1., 1970. — С. 58-63.
10. Пирс Ч. С. Из работы «Элементы логики» // Семиотика: антология. 2-е изд., испр. и доп. — М., 2001. — С. 165–226.
11. Романовская А.А. Природа античного символа как лингвистического знака, Мир русского слова. М., 2009. — 452 с. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/priroda-antichnogo-simvola-kak-lingvisticheskogo-znaka>
12. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики // Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. — М., 1977. — 285 с.
13. Тахо-Годи А.А. Термин «символ» в древнегреческой литературе // Образ и слово. Вопросы классической филологии, — Вып. VII. — М.: Изд-во Московского университета, 1980. — С. 16 – 57
14. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. — М.: Русский язык, 1984. — 942 с.
15. Содиқова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. — Т.: СЭ, 1989. — 336 с.
16. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1977. — 224 б.

### References

1. Arutyunova N.D. *Yazyk i mir cheloveka* (Language and the human world), Moscow, 1999, 905 p.
2. Gizatullina L R. *Numerologicheskie frazeologicheskie edinitsy v angliiskom i tatarskom yazykakh* (Numerological phraseological units in English and Tatar languages), Extended abstract of Ph.D thesis, Ufa, 2004, 32 p.
3. Galieva M.R. *Kognitivnaya lingvistika*, 2014, No. 2, pp. 56–65.
4. Galieva M.R. *Uzbekistonda khorizhii tillar*, 2018, No. 4 (23), pp. 33–40, available at: <https://journal.fledu.uz/ru/simvolicheskaya-znachimost-mifologo-religiozno-markirovannyh-yazykovyh-edinits/>

5. Dzhusupov N.M. *Tyurkskii simvol v khudozhestvennom tekste*, (The Turkic symbol in the literary text), Astana, 2011, 177 p.
6. Losev A. F. *Filosofskaya entsiklopediya* (Philosophical Encyclopedia), vol. 5, Moscow, 1970, 580 p., available at: <http://philosophy.niv.ru/doc/encyclopedia/philosophy/articles/1117/simvol.htm>
7. Losev A. F. *Problema simvola i realisticheskoe iskusstvo* (The problem of symbol and realistic art), Moscow, 1976, 51 p.
8. Losev A. F. *Mify narodov mira. Entsiklopediya* (Myths of the peoples of the world. Encyclopedia), vol. 1, Moscow, 2003, 335 p.
9. Lotman Yu.M. *Semantika chisla i tip kul'tury, Tipologiya kul'tury* (Semantics of number and type of culture, Typology of culture), Tartu: issue 1, 1970, pp. 58-63.
10. Pirs Ch. S. *Iz raboty Elementy logiki, Semiotika: antologiya* (From the work *Elements of Logic*, Semiotics: an anthology), Moscow, 2001, 226 p.
11. Romanovskaya A.A. *Priroda antichnogo simvola kak lingvisticheskogo znaka, Mir russkogo slova* (The Nature of the Ancient symbol as a linguistic sign, the World of the Russian word), Moscow, 2009, 452 p., available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/priroda-antichnogo-simvola-kak-lingvisticheskogo-znaka>
12. Sossyur F. de. *Trudy po yazykoznaniyu* (Works on Linguistics), Moscow, 1977, 285 p.
13. Takho-Godi A.A. *Termin simvol v drevnegrecheskoi literature* (The term *symbol* in ancient Greek literature), issue VII., Moscow: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 1980, pp. 16–57
14. Kunin A. V. *Anglo-russkii frazeologicheskii slovar'* (English-Russian phraseological dictionary), Moscow: Russkii yazyk, 1984, 942 p.
15. Sodikova M. *Kratkii uzbeksko-russkii frazeologicheskii slovar'* (A concise Uzbek-Russian phraseological dictionary), Tashkent: SE, 1989, 336 p.
16. Rahmatullaev Sh. *Uzbek tilining frazeologik lugati* (Phraseological Dictionary of the Uzbek language), Tashkent: Ukituvchi, 1977, 224 p.